



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 6-fevral, seshanba,
15 (23.892)-son

**KUN
HIKMATI**

Mahalla
rahbarligi ishsizga
ish, bekorchiga
mashg'ulot
emas

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

QURILISH

SHAFFOF TIZIMGA AYLANADI(mi?)

Joriy yilning 29-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida uy-joy, qurilish, kommunal xo'jaligi, transport va ekologiya sohalari-da amalga oshirilgan ishlar va ustuvor vazifalar yuzasidan videosektor yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda sohadagi kamchiliklar qayd etilib, bugungi kunda loyiha tashkilotlari obyekt qiymatini imkon qadar "shishirishga" harakat qilayotgani ta'kidlandi. Sababi, loyiha qancha qimmat bo'lsa, loyihachi shuncha ko'p pul oladi. Shu bois, aksariyat loyihalarda keraksiz xizmatlar, ortiqcha hashamat qo'shib kiritilmoqda. Masalan, 2023-yilda loyihalarda 3 trillion so'mlik bunday keraksiz xarajatlarning oldi olingan. Aksincha, iqtisod qilishga kelganda, quruvchilarning ish haqi va asosiy qurilish materiallari narxi bozordan past narxlarda hisoblanmoqda.

Bularning hammasi quruvchi-pudratchilarning "obnal" va "o'g'irlik" qilishiga, sifatsiz qurilish materiallarini ishlatishiga sharoit yaratayotgani, "yashirin" qurilish materiallari bozori vujudga kelgani qayd etildi.

Amaldagi loyihalash jarayonlari va qurilish ishlari "resurs usuli"ga asoslangan. Bu usulda bitta maktab qurish uchun qancha ishchi kerak, qancha yoqilg'i va nechta texnika ishlatiladi, texnikaning turi qanaqa bo'lishi kerak, degan yuzlab shartlar kiritilgan. "Hajm usuli"da esa pudratchidan yakuniy natija so'raladi. Muhimi, quruvchi obyektini o'z vaqtida va sifatlilik topshirsa bo'ldi.

Bundan tashqari, loyiha, tender, qurilish va obyektini qabul qilish bilan bog'liq barcha jarayonlarda korrupsiya holatlari uchrab turibdi.

Endilikda loyiha qilishdan boshlab, obyektini foydalanishga topshirishgacha bo'lgan barcha jarayonlar ham, ularning nazorati ham yangicha tashkil etiladi. Eng avvalo, barcha loyiha-smeta hujjatlarini

tayyorlash, ishlarni amalga oshirish, shuningdek, ularni qabul qilishda "resurs usuli"dan voz kechilib, "hajm usuli"ga o'tiladi.

Bu tartib 1-iyuldan yo'l, ichimlik suvi va ko'priklar qurilishi loyihalarida joriy qilinishi belgilandi.

Qurilishni korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida 1-iyuldan:

- qurilishda tuziladigan barcha shartnomalar raqamlashtiriladi;

- pudratchi tashkilotlar bajargan qurilish ishlari faqat soliq organiga taqdim etilgan elektron hisob-fakturadan kelib chiqib moliyalashtiriladi;

- obyektini foydalanishga qabul qilish jarayoni raqamlashtirilib, dalolatnomalar "Shaffof qurilish" orqali tasdiqlanadi;

- 10 milliard so'mdan ortiq loyihalar bo'yicha sub-pudratchilarni faqat va faqat "Shaffof qurilish" tizimi orqali tanlash tartibi yo'lga qo'yiladi. Ushbu tartib xalqaro moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarga ham tatbiq etiladi;

- ishlab chiqaruvchi ham, quruvchi ham, nazorat qiluvchi ham qayerda qaysi qurilish materiali qancha pul turishini onlayn kuzatib boradigan tizim bo'ladi.

Qurilishda loyihalashtirishni tartibga solish maqsadida Qurilish vazirligida Loyiha ofisi tuzilishi belgilandi. Ofis:

- qiymati 10 milliard so'mdan yuqori loyihalarni ishlab chiqish jarayonida ularning xavfsizlik va energiya tejamkorlikka javob berishini, qiymati sun'iy oshib ketmaganini loyihachilar bilan birga baholab boradi;

- har yili maktab, bog'cha, tibbiyot, yo'l, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti kabi sohalarning har birida kamida 2-3 tadan namunaviy loyihalar ishlab chiqadi.

Bundan buyon, loyiha ofisining tavsiyasi bo'lmagan loyiha hujjatlari davlat ekspertizasiga qabul qilinmaydi.

(Davomi 3-sahifada) >>>

Viloyatimizning barcha tuman va shaharlarida mahalla "yettiligi" uchun o'quv-seminarlar o'tkazilmoqda.

Seminarlarga Davlat boshqaruvi akademiyasida tayyorlangan malakali trenerlar, mutasaddi idora va tashkilot mas'ullari jalb qilingan. Jarayonda Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda farmoni va qarori mazmun-mohiyati hamda ularni belgilagan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha trening va mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

- Mahalla instituti katta islohotlarni boshidan o'tkazayapti, - deydi viloyat hokimligi huzuridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursi direktori Toshtemir Ergashev.

- Shunday ekan, faollar ham o'z bilim va malakasini oshirib borishi, qonunlardagi o'zgarishlardan xabardor bo'lishi kerak. Shu vaqtgacha mahallalarda "beshlik" bo'lgan, endi u tarkib bo'yicha ham, vazifalar taqsimoti bo'yicha ham takomillashdi. Xususan, rais endi mahalladagi hokim hisoblanadi. U "yettilik"ning qolgan a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirishi, baholashi lozim. Shu bilan birga, uning ham faollar va fuqarolar oldida majburiyatlari bor. Seminar ishtirokchilariga har

MAHALLA "YETTILIGI" O'QITILMOQDA



bir holat bo'yicha tushuntirish berilmoqda.

- 25 yildan beri mahallada ishlayman, - deydi Samarqand shahar Mingtut mahallasi xotin-qizlar faoli Nazokat Safarova. - Yaqingacha faoliyatimiz turli hujjatlar asosida belgilanib, o'zaro muvofiqlashtirilgan edi. Aytaylik, ijtimoiy xizmat, soliq tushumi, aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni kezi kelsa, rais ham, biz ham qilib

ketaverganmiz. Yangi tuzilmada barcha vazifalar aniq taqsimlangan. Bu nafaqat alohida yo'nalish, balki jamoaviy ish samaradorligiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

O'quv-seminarlar joriy yilning 17-fevraliga qadar davom etadi. Unda viloyatdagi 1126 ta mahalladan 6065 nafar xodim qamrab olinadi. Seminarlar yakunida ishtirokchilardan ijtimoiy so'rov va test sinovi olinishi belgilangan.

A.BAROTOV.



**INDALLOSINI
AYTGANDA...**

**Viktor ALIMASOV,
faylasuf, olim:**

Amaldorni maqtadimgi, tamom, unda o'zini ulug'lash instingti paydo bo'ladi.

DAVLAT DASTURI – MUHOKAMADA

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" yili davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyi-halari joriy yilning 9-fevral kuni qadar keng jamoatchilik va ekspertlik muhokamalaridan o'tkazilmoqda.

uzbekistan2030.uz orqali siz ham loyiha bo'yicha o'z taklifingizni bildiring!
"O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Prezident farmoni loyihasida:

2024/2025-o'quv yilidan boshlab:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaharining 1 tadan tumanida (shahar) sinov tariqasida "Mening maktabim" loyihasi yo'lga qo'yilsin hamda buning doirasida maktablarga bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablag' ajratilib, 5 – 11-sinf o'quvchilari tanloviga ko'ra, elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktablar uchun zarur tovarlarga sarflanishi belgilansin; umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarini menejerlik sertifikatlash tizimi joriy etilsin. Bunda, direktorlarga malakaviy talablar aniq belgilanib, ular har besh yilda bir marotaba attestatsiyadan o'tkazilsin.

2024-yil 1-dekabrden boshlab:

yolg'iz yashayotgan hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga Toshkent shahrida eksperiment tariqasida tegishli yo'nalishdagi nodavlat tashkilotlar orqali ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag'lari hisobidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

2024-yil 1-martdan boshlab:

500 va undan ortiq kvadrat metrlik qurilish maydonida, unga kirib-chiqish yo'llarida chang va qum zarrahalarning havoga ko'tarilishini bartaraf etish bo'yicha majburiy talablar joriy etilsin.

2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida "YEVRO – 5" va undan yuqori standartlariga muvofiq bo'lmagan avtomashinalar eks-pluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklansin.

Samarqandlik o'quvchilar yaratgan platforma

Yevropada 50 ming yevroga baholanmoqda

"Bir million dasturchi" loyihasi axborot texnologiyalariga qiziqishi bo'lgan yoshlarga ushbu soha bilan shug'ullanish, maxsus kurslarda qatnashish, bir qator imtiyozlar va kasb-hunarli bo'lish imkoniyatini bermoqda. Bunday imkoniyatdan unumli foydalangan samarqandlik maktab o'quvchilari ingliz tilini o'rganish platformasini yaratdi. Ahamiyatlisi, ushbu platforma Yevropaning nufuzli ta'lim muassasalarida ishlatilmoqda.



Platforma asoschilari Samarqand shahridagi maktablarda tahsil olayotgan 10-sinf o'quvchilari bo'lib, IT sohasidagi bilimlarini "Bir million dasturchi" loyihasi hamda infomatika fani bo'yicha qo'shimcha darslar orqali mustahkamlagan va

tengdoshlari, til o'rganishga ishtiyoqmand kishilar uchun qariyb ikki oyda bu loyihani ishlab chiqishgan.

- Platforma sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning til bilish darajasini yuqori darajada aniqlab beradi, - deydi

platforma asoschilaridan biri Saidafzal Shukurov. - Shuningdek, til bilishda qaysi jabhada o'z ustida ishlashi kerakligini, imtihon sharoitini, kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'rsatadi. Izlanishlarimizni yana davom ettirib, platforma imkoniyatlarini kengaytiramiz va ushbu platformani mamlakatimizda ham ishga tushirishni rejalashtiryapmiz.

Tizim hozirgi kunda o'nga yaqin mamlakatda sinovdan o'tdi. Bosh qarorgohi Gretsiyada bo'lgan, 20 dan ortiq davlatda filiallariga ega G'arbiy Yevropaning eng nufuzli ta'lim muassasalaridan biri Maria Daviati nomidagi xalqaro maktab tomonidan yuqori baholanib, amaliyotga joriy qilingan.

- Oldin axborot texnologiyalariga oid material kerak bo'lsa, Yevropa mamlakatlaridan so'rardik yoki platforma sotib olardik, - deydi xalqaro ekspert Muhammadxon Soliyev. - Keyingi paytda mamlakatimizda xorij tillari va axborot texnologiyalarini o'rganish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ta'lim dasturlarida xalqaro standartlarga javob beradigan infomatika darsliklarining yaratilishi natijasida o'quvchilarimiz jahon darajasidagi yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, sarmarqandlik o'quvchilar tomonidan yaratilgan til o'rganish platformasi o'zining kengaytirilgan dialekti bilan ajralib turadi va Yevropa mamlakatlarida 50 ming yevro qiymatida baholanmoqda.

F.RO'ZIBOYEV.

Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrda "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni" munosabati bilan yurtimizda joriy yilning 12-17-fevral kunlari "Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi" mavzusida haftalik o'tkazish belgilangan.

Haftalik doirasida Samarqanddagi ta'lim muassasalarida olim ayollar ishtirokida ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy hamda xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan forum, konferensiya, seminar, davra suhbat va uchrashuvlar o'tkaziladi.

Olim ayollar hamda ilm-fan sohasida turli ko'rik-tanlovlarda,

olimpiadalarda g'olib va sovrindor bo'lgan, innovatsion loyiha yaratgan iqtidorli qizlar, nafaqadagi, shuningdek, ta'lim muassasalarida ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan o'qituvchi xotin-qizlar rag'batlantiriladi hamda ularning muzey va ziyoratgohlarga sayohati tashkil etiladi.

Ko'p yillardan buyon suv Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston uchun muhim resurs hisoblangan. Uni tejash, foydalanishni tartibga solish zarurati tufayli 1999-yilda 14 moddadan iborat qonun ham qabul qilingandi. Ammo endi vaqt o'tdi, zamon o'zgardi. O'sha paytda qabul qilingan qonunda suv inshootlari bo'yicha loyihachiga ham quruvchiga ham, yetarli majburiyat belgilanmagandi. Buning achchiq xulosasini Sardoba suv ombori misolida ko'rdik. Bu kabi holatlar takrorlanmasligi uchun sohaning har bir bo'g'ini yuzasidan huquqiy majburiyatni aniq belgilash lozim.

Gidrotexnik inshootlar xavfsizligi uchun loyihachi va pudratchi ham mas'ul bo'ladi

Shu bois 2023-yil 30-avgustda "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 6 bob, 34 moddadan iborat qonun bilan gidrotexnika inshootlarining loyiha ko'rsatkichlari parametrlariga, ularga yuklamalar hamda ta'sir ko'rsatish omillariga, shuningdek, qurilishda ishlatiladigan materiallarga, foydalanish sharoitlariga qarab gidrotexnika inshootlari I, II, III va IV sinflarga bo'linadi. Gidrotexnika inshootlarining tasnifidan kelib chiqqan holda gidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta'minlashning asosiy talablari belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan. Inspeksiya gidrotexnika inshootlari xavfsizligining davlat nazoratini va tekshiruvini amalga oshiradi, daryolar, soylarning o'zanlarida, gidrotexnika inshootlariga tutash bo'lgan yuqori va quyi hududlarda suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanishni amalga oshiruvchi yoxud shu kabi faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ishini muvofiqlashtiradi. Agar bu faoliyat gidrotexnika inshootlarining xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, taqiqlaydi, to'xtatib turadi yoki cheklaydi. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini taqiqlash, to'xtatib turish yoki cheklash sud tartibida amalga oshiriladi.

Oddiy qilib aytganda, avvalgi qonun bo'yicha suv inshooti qurilishda loyihachi loyihani tuzadi, quruvchi quradi va shu bilan ularning vakolati tugaydi. Endi yangi qonun bilan har bir tashkilot suv inshooti necha yil xizmat qilishidan qat'iy nazar inshoot qurilishidagi xatolar uchun javobgarlik belgilandi. Qonunda gidrotexnika inshootlarning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan foydalanuvchi tashkilotlarning huquq va majburiyatlari buyurtmachi, loyihachi va pudratchi tashkilotlarning mas'uliyati oshirildi.

Akbar AZIMOV,
"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi
bosh mutaxassisi.

Oqtosh mahallasi Bulung'ur tumanining Jizzax viloyati bilan chegara hududida joylashgan. Mahalla Sho'rbo'dana, Mo'minobod va Oqtosh qishloqlaridan iborat bo'lib, aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi.

- Keyingi yillarda qishloqlarimizda o'zgarishlar ko'p, - deydi mahalla raisi Shamshiddin Ashurov. - Hududimizda 120 o'rinni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti qurildi. 8 kilometr yo'lga asfalt yotqizildi, 2,6 kilometr ichki yo'l beton bilan qoplandi. 120 ta eski simyog'ochlar yangi beton ustunlarga almashirildi, 2,6 kilometr elektr tarmog'i tortildi. Shu paytga qadar mahallamizda issiqxonalar yo'q edi va qishda yerdan unumli foydalanilmasdi. Mahalladoshimiz Shavkat Rahmatov issiqxonalar barpo etib, boshqalarga o'rnak bo'ldi.

Mahallada qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotgan quruvchilari, albatta. Ayniqsa, chekka qishloqda qad rostlagan zamonaviy bog'cha binosi e'tiborni tortadi. Biroq yangi binoning isitish tizimi talab darajasida emasligiga guvoh bo'ldik.

Mahallada bundan 2-3 yil avval tadbirkorlik bilan shug'ullanadiganlar barmoq bilan sanarli bo'lgan ekan.

- Faoliyatimni xatlov o'tkazish bilan boshlaganman, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Islom Safarov. - 2022-yil boshida hududimizda 3 ta savdo do'koni bor edi. Bugungi kunda esa ularning soni 10 dan oshdi. Tadbirkorlik, hunarmandchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanib, yangi ish o'rni yaratayotganlar, o'zini o'zi band qilayotganlar safi kundan-kunga kengayib boryapti. 2022-yilda 53 nafar fuqaro 784 million so'mlik imtiyozli kreditlar asosida ish boshlagan bo'lsa, 2023-yilning 11 oyi davomida 70 kishiga 1 milliard 200 million so'm kredit ajratildi. Mahallada



Oqtoshda yangiliklar ko'p, ammo...

bo'sh turgan yerlar tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga auksion orqali berilyapti. Mahalla markazida o'ngacha yaqin savdo va maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari uchun binolar qurilishi boshlangan.

Shu paytga qadar aholi tomorqalaridan unumli foydalanilmagan.

- Hududda to'qsonbosti ekinlar deyarli yetishtirilmagan ekan, - deydi hokim yordamchisi. - O'zimiz boshqalarga namuna bo'lib, fuqarolar yig'ini hovlisida piyoz va sarimsoqpiyoz yetishtirishni yo'lga qo'ydik. Tomorqadan unumli foydalana oladigan ishsiz yoshlar aniqlanib, ularning 80 nafariga 36 gektar yer ajratildi. Shuningdek, tomorqa hosilini yig'ishtirib, bozorga chiqarish va boshqa yumushlarda foydalanish uchun 40 dan ziyod fuqaroga imtiyozli kredit asosida aravachali mototsikl olishga ko'maklashildi.

O'lis qishloq ayoli Nargiza Hasanova ro'zg'or tebratish uchun tomorqadan unumli foydalanishga harakat qiladi.

- 14 sotix tomorqadan yiliga uch marta hosil olaman, - deydi u. - Kech kuzda sarimsoqpiyoz, uning orasiga ismaloq urug'ini qadayman. Qish oxiri va erta bahorda ismaloq hosilini yig'ishtirib, sotaman. Keyinroq sarimsoqpiyoz yetiladi. Uning o'rniga pomidor, kartoshka va ro'zg'or uchun kerakli boshqa sabzavot mahsulotlari ekaman. Ularni yig'ishtirib, yana sarimsoqpiyoz ekish vaqtigacha ismaloq yetishtiraman. Qish payti bekor o'tirmaslik uchun daladan qo'ziqorin terib, bozorga olib chiqaman. Undan ham ro'zg'or tebratishga yetadigan daromad topaman. Bitta issiqxonalar qurib ololsam, qo'ziqorinni hovlimda yetishtirish istagida edim.

Biz bu ayoldan intervyu olayotgan vaqtda hokim yordamchisi yonimizda edi. U Nargiza Hasanovaning so'zlarini eshitib, homiylik asosida unga issiqxonalar qurib berilishini va'da qildi. Ko'ramiz, hokim yordamchisi va'dasining ustidan chiqarmikan.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Imtiyoz javobgarlikdan ozod qilmaydi

Yurtimizda biznes vakillariga berilayotgan qulayliklar ko'lami ortib bormoqda. Buning natijasini bojxona organlari faoliyati misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, 2023-yilda tadbirkorlik subyektlariga bojxona to'lovlaridan 3,58 trillion so'mga yaqin imtiyoz va tarif preferensiyalari qo'llanildi. 2022-yilda bu 2,32 trillion so'mga teng bo'lgan.

Aytish joizki, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona to'lovlarini kechiktirib to'lash tartibi ham soddalashtirildi. O'tgan yili tadbirkorlar 946 milliard so'm miqdorida bojxona to'lovlarini to'lashda ushbu imkoniyatdan foydalandi. Mazkur sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, 2023-yilda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi 791,8 million AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 21,5 foizga ko'paydi. Eksport qilingan asosiy tovarlar sirasiga meva-sabzavot mahsulotlari (205,5 million AQSh dollari), transport va uning ehtiyot qismlari (169,4 million AQSh dollari), to'qimachilik mahsulotlari (112,4 million AQSh dollari), metall va

ulardan tayyorlangan buyumlar (86,3 million AQSh dollari), oziq-ovqat mahsulotlari (66,4 million AQSh dollari) va boshqalar kiradi.

Afsuski, berilayotgan imtiyoz va qulayliklarni noto'g'ri talqin qilayotgan "ishbilarmon"lar ham yo'q emas. Xususan, viloyat bojxonachilari tomonidan hisobot davrida 1128 ta huquqbuzarlik holati aniqlandi. Jarayonda jami 35 milliard 770,3 million so'mlik tovarlarning noqonuniy aylanmasi to'xtatib qolindi. Jumladan, giyohvandlik vositalarini chegaradan olib o'tish bilan bog'liq 29 ta holatda 19 kilogramm zahriqotil ushlab qolingan bo'lsa, 12 ta holatda 1486 dona psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi tabletkalarning kirib

kelishi to'xtatib qolindi. 10 ta holatda esa 5 milliard 68,9 million so'mlik 94181,1 litr alkogol mahsuloti va 18 ta holatda 2 milliard 464,7 million so'mlik 171 ming 651 quti tamaki mahsulotining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yildi.

Tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Davlat bojxona qo'mitasining qisqa 11-08 raqamli hamda viloyat bojxona boshqarmasining (66)-233-63-00 raqamli "Ishonch telefoni" har kuni 24 soat davomida ishlashi yo'lga qo'yilgan. U orqali bo'layotgan har bir yurojaat qonunchilik doirasida ko'rib chiqilmoqda.

Viloyat bojxona boshqarmasi
axborot xizmati.

Ro'yxatdan o'tmasdan qurilgan obyektlar foydalanishga qabul qilinmaydi

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi oghlantiradi!

Vazirlar Mahkamasi 2023-yil 23-noyabrda "Shaharsozlik faoliyatida ruxsat berish tartib-taomillarini ta'komillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi hukumati ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori bilan 2024-yilda bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Qarorga asosan qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasidan ro'yxatdan o'tmagan holda ya'ni ruxsat olinmasdan qurilgan bino va inshootlardan foydalanish uchun ruxsatnoma berish bekor qilinadi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat inspeksiyasi 2024-yil 1-apreldan hududiy inspeksiyalardan ro'yxatdan o'tmasdan qurilgan obyektlarni instrumental texnik tekshiruvdan o'tkazib, foydalanishga ruxsat berish ishlari to'xtatildi.

Yuqoridagi o'zgarishlar bo'yicha pudratchi quruvchi va loyihachilarda savol tug'ilganda (55) 705-87-25 "ishonch telefon" raqamiga qo'ng'iroq qilishinigiz so'raladi.

Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi.

Toyloq tumanida yosh oilalar, kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan va boshqa uy-joyga muhtoj oilalar uchun 2010-2023-yillarda 2324 ta xonadon foydalanishga topshirilgan. Tuman aholisi esa 2019-yilda 200,4 ming kishini tashkil etan bo'lsa, 2023-yilda 221,1 ming kishiga yetdi. Bu albatta, uy-joyga bo'lgan ehtiyoj oshishiga sabab bo'lmoqda.

Tuman hokimligi ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlar uchun tumandagi qurilayotgan ko'p qavatli uylarning sifati va aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, sanoat korxonalarini faoliyati bilan tanishtirish maqsadida tashkil etgan press-turda yuqoridagi muammoga qanday yechim topilganiga e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 11-yanvar kuni viloyatimizga tashrifi chog'ida bergan topshiriqlarida Samarqand shahridagi Qorasuv massivi, Urgut va Toyloq tumanlarida ko'p qavatli arzon uy-joylar qurilishi belgilangandi. Topshiriq asosida Toyloqning Charog'bon massivida ko'p qavatli uy-joylar qurilishi uchun 3,5 gektar yer ajratilib, 2019-2023-yillarda 21 ta 4-12 qavatli uylar qurilib, foydalanishga topshirildi. 17 ta 12 qavatli uy-joy qurilishi uchun 450 milliard so'm investitsiya kiritilgan. Kam ta'minlangan, sharoiti og'ir oilalar hamda xotin-qizlar uchun 96 xonadon ajratilgan. Uy-joyga muhtoj 460 nafar fuqaroga subsidiya asosida xonadon ajratilib, ularga

MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASI 90 FOIZ



10,8 milliard so'm boshlang'ich badallar to'lab berilgan.

Achinarli tomoni, biz massivga borganimizda ko'p qavatli uylarga yuqori kuchlanishdagi elektr kabellari yerdan tortilgani, xonadonlar oldida himoyasiz qoldirilgan katta chuqurlar borligi, uylardagi liftlarning tugmalari yo'qligiga guvoh bo'ldik. "Yangi Toyloq" boshqaruv servis kompaniyasi rahbari Anvar Qurbonov liftlardan to'g'ri foydalanish va yuqori qavatdagi xonadonlarda yashovchilarning pastga chiqindi tashlamasliklarining oldini olish maqsadida hududda videokuzatuv kameralari o'rnatilganini bildirdi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga asosan tumandagi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining foydalanilmay kelinayot-

gan 27,4 gektar maydoni zaxiraga olinib, elektron onlayn auksionga chiqarilishi belgilangan.

- Charog'bon mahallasida joylashgan ushbu maydon bo'yicha ishlab chiqilgan reja muvofiq, 2023-2030-yillarda jami 43 ta ko'p qavatli uy, shundan 43 ta 16 qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan, - deydi tuman hokimligi mutaxassisi Xurshid To'xtayev. - Hozirda 4 ta ko'p qavatli uy qurilishi boshlangan. Shuningdek, massivda 2020 o'rinli maktab, 360 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti, savdo markazi, IT park va yoshlar markazi, mahalla binosi, oilaviy poliklinika, nuroniylar choyxonasi, maishiy xizmat ko'rsatish binolari, 1720 o'rinli avtoturargoh qurilishi belgilangan.

Keyingi manzilmiz tumanning Adas

mahallasida joylashgan "SAM FIORENTA" mas'uliyati cheklangan jamiyati bo'ldi. 2021-yilda tashkil etilgan korxonaga 2023-yil yakunida Xitoydan zamonaviy uskunalar keltirildi. 30 nafar ishchi mehnat qilayotgan korxonada yiliga 100 ming dona 6 xildagi changyutkich ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Hozirda bitta liniyada kuniga 250-300 ta changyutkich ishlab chiqarilmoqda. Joriy yil iyun oyigacha ikkinchi liniya ishga tushirilishi bilan ishlab chiqarish hajmi kuniga 550 tagacha, mahalliyashtirish hozirgi 35 foizdan 75 foizgacha ortishi kutilmoqda. Korxonada mahsulotlari ichki bozordan tashqari qo'shni respublikalar va Rossiyaga ham eksport qilinmoqda.

Maishiy texnika ishlab chiqaruvchilar uchun sifatlari va kuchlanishga chidamli kabellar juda muhim hisoblanadi. Hozirda bunday kabellar asosan Turkiyadan import qilinadi. Bu esa tannarxaga ham ta'sir ko'rsatadi.

- Joriy yilda qiymati 17 milliard 500 million so'mlik loyiha asosida yiliga 1 million komplekt maishiy texnika uchun yong'inga chidamli kabel ishlab chiqarish sexini ishga tushirishni rejalashtiryapmiz, - deydi korxonada ishlab chiqarish guruhi rahbari Qodir Zaidov. - Bu bilan korxonamiz ishchilari soni 100 nafarga yetadi. Chidamli kabellar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish orqali boshqa maishiy texnika ishlab chiqaruvchilarga ham sifatlari kabel yetkazib berish imkoniyati yaratiladi.

Hozirda korxonada gaz plitalarining 90 foizi mahalliyashtirilgan, yil yakunigacha changyutkichlarning ham 75 foizini mahalliyashtirish rejalashtirilgan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

QURILISH SHAFFOF TIZIMGA AYLANADI(mi?)

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Bosh prokuraturaga qurilish materiallari sohasida qazib olishdan tortib, tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazishgacha barcha jarayonlarda yashirin iqtisodiyotga chek qo'yish bo'yicha tizim yaratish vazifasi qo'yildi.

Budjet hisobidan qilinadigan barcha xaridlar Soliq qo'mitasining "E-ombor" platformasi orqali amalga oshiriladigan tartibni joriy qilish, qurilish materiallari klassifikatori elektron platformasini ishga tushirish bo'yicha topshiriq berildi.

Shuningdek, yig'ilishda mutasaddilar aholi punktlarining bosh rejalari va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishni o'z holiga tashlab qo'ygani tanqid qilindi. Bosh rejasi bor hududlarda ham qurilish ishlari pala-partish tashkil etilmogda. O'tgan yilning o'zida 4 mingga yaqin noqonuniy qurilish aniqlangan. Keyingi ikki yilda ko'p qavatli uylarga tutash maydonlarda 7 mingdan ortiq o'zboshimcha qurilish bo'lgan, yana 5 mingga holatda umumiy foydalanishdagi joylar to'sib olingan. Umuman, ko'chalarning yagona qiyofasiga amal qilish tizimi yo'qligi, masalan, turli uslubdagi binolar yonma-yon qurilib, shaharlarning arxitektura qiyofasi buzilayotgani qayd etildi.

Yig'ilishda o'zboshimchalik bilan va noqonuniy qurilgan obyektlarni tartibga olish bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilinishi belgilandi. Bunda, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi va "O'zbekkosmos" boshchiligidagi respublika komissiyasi tuziladi. Komissiya muntazam ravishda hududlarning aero va kosmik suratlarini olib, tahlil qiladi va oldingi suratlar bilan tafovutlarni aniqlaydi va noqonuniy qurilishlar ro'yxatini shakllantiradi. Qurilish vazirligi viloyat hokimlari bilan birga joriy yilda 170 ta, kelasi yilda esa kamida 300 ta shahar va shaharchaning bosh



Kamol KUBAYEV, viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.

rejasini ishlab chiqadi. Shuningdek, har bir ishlab chiqilgan reja aholi bilan muhokama qilinadi va ijrosi bo'yicha jamoatchilik nazorati o'rnatiladi.

Buning uchun "Mening hududim" platformasi ishga tushirilib, shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini o'rganish va ovoz berish mexanizmini joriy qilish topshirildi.

Berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, respublika Bosh prokuraturasi va viloyat prokuraturasi tomonidan soha xodimlari ishtirokida yig'ilishlar o'tkazilib, kamchiliklar muhokama qilindi.

Sohadagi qo'loqliklar va qonuniylik to'la ta'minlanmagan tizim rahbarlari va mas'ullarning tushuntirishlari eshiltildi hamda ular faoliyatini to'g'ri va samarali yo'naltirmasa, javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirildi.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, o'tgan yili viloyatimizda 10069,1 milliard so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. 2022-yil bilan solishtirilganda o'sish 8,9 foizni tashkil etdi. Bajarilgan ishlar tahlil qilinganda yirik qurilish tashkilotlari 1718,9 milliard, kichik korxonalar va mikrofirmalar 7347,1 milliard, norasmiy sektorda 1003,1 milliard so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. Bunda davlat mulkchiligi 213,9 milliard, nodavlat mulkchilik 8955,2 milliard so'mni tashkil etgan.

Viloyat prokuraturasi va hududiy qurilish nazorat inspeksiyasi xodimlari bilan birgalikda o'tkazilgan yig'ilishda ta'kidlanishicha, 2023-yilgi davlat dasturlari doirasida 200 dan ortiq qurilish-pudrat tashkiloti tomonidan 1429 ta obyekt qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilangan. Hozirgacha 1372 ta obyekt ishlar yakunlanib, foydalanishga topshirilgan. Obyektlarni qurilishdan boshlab, foydalanishgacha bo'lgan jarayonlar o'rganilgan. Sifatli hamda hisobotlarga qo'shib yozish holatlari aniqlanib, kamchiliklar to'liq bartaraf etilishi ta'minlandi.

Samarqand shahrining Sug'diyona mahallasidagi xonadonlardan birida ijrada yashab kelayotgan Nilufar Qosimova musofirlikning mashaqqatlari bilan yaxshi tanish. 5 nafar farzandi ham Rossiyada dunyoga kelgan. Biroq na Rossiyada va na o'z yurtiga qaytganida bolalariga tug'ilganlik haqidagi guvohnoma ololgan. Bir vaqtlar bir dunyo hujjat bilan eshikma-eshik yurib, charchagan fuqaro oxir oqibat bu ishga qo'l siltagan.

Fuqaroning muammasi "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" huquqiy aksiyasi doirasida o'tkazilgan xatlovda aniqlandi. Viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i holatni nazoratiga olib, muammoga huquqiy yechim topishda ko'maklashdi. Xususan, Samarqand shahar adliya bo'limi 4-fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan fuqaroga farzandlari uchun tug'ilganlik haqidagi guvohnomani rasmiylashtirishga kerak bo'ladigan hujjatlarni to'plashda ko'maklashildi. 10 yillik muammo qisqa fursatda hal etilib, hujjatlar egalariga topshirildi. Bu bilan ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sifatida kafolatlangan ijti-



Adliya aksiyasi:

10 YILLIK MUAMMO HAL ETILDI

moyi va huquqiy himoyaga ega bo'ldi.

Mazkur aksiyaning dastlabki 10 kunida viloyatimizdagi 211 nafar shaxs tegishli hujjatlar rasmiylashtirib berildi. Jumladan, 21 nafar shaxsning tug'ilishi qayd etilib, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, 5 nafar shaxsga ID-karta berilgan bo'lsa, hujjatsiz ishlab kelgan 151 ta tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Sizda ham hujjatlar bilan bog'liq muammo bo'lsa, adliya bo'limlariga murojaat yoki 1148 raqamli "Ishonch telefoni"ga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

"Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" huquqiy aksiyasi joriy yilning 20-martiga qadar davom etadi.

Viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati.

Bo'lg'usi biotexnologlar

ta'lim davrida mutaxassislik fanlaridan

olgan nazariy bilimlarini amaliyotda bajarmoqda

Talabalarni amaliyotga chiqarish, o'z yo'nalishi bo'yicha tashkilotlarga birlashtirish kelgusida sifatli kadr tayyorlash imkoniyatini beradi. Zero, talaba oliy o'quv yurtini bitirguncha ish stajiga ega bo'ladi va qo'lga diplomini olib, istagan korxonasiga qo'rqmasdan ish so'rab boradi.

Shu maqsad-muddaodan kelib chiqib, universitetimizning yuqori bosqich talabalari doimiy yashash hududidagi ishlab chiqaruvchi korxonalar, tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida bir yarim oy davomida amaliyot o'tab, nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamladi. Birgina misol, Jomboy tumanidagi "SAG AGRO" MChJning "Bog'bon" agrokompleksiga qarashli "In vitro" laboratoriyasida amaliyot o'tash jarayonida talabalar biotexnologik laboratoriya jarayonlarini mutaxassislar bilan birgalikda amalga oshirdi.

Ta'kidlash o'rinishi, ushbu laboratoriyada yong'oq, bodom, shaftoli, gilos, o'rik, nok, olma kabi mevali daraxtlarning turli kasallik va zararkundalardan xoli bo'lgan hamda qurg'oqqchilikka chidamli, turli iqlim sharoitiga mos mahalliy navlarining klon payvandtaglari va payvandlangan ko'chatlar yetishtirilmoqda. Bu yerda mamlakatimizda uchramaydigan 65 klon mevali daraxt ko'chatlari parvarish qilinmoqda.

Shuningdek, anor, shaftoli, nok kabi an'anaviy mevalarning G'arb davlatlaridagi namunalarini olib kelib, kallibrovkasi katta, ozuqaviy qiymati yuqori hamda darmondorilarga boy navlarini seleksiya qilish, gibrid navlar ustida ilmiy izlanishlar olib borish jarayonlariga katta e'tibor berilmoqda. Talabalar esa amaliyot davomida chet elning eng zamonaviy asbob-uskunalarini bilan ta'minlangan laboratoriyalarda olimlar bilan birga ushbu jarayonlarda bevosita ishtirok etishdi.



Biotexnologiya sohasining rivojlanishiga hozirgi dolzarb muammolarning yechimi sifatida qaralmoqda. Masalan, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi (FAO) hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotlari ma'lumotlariga qaraganda, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammasini boshidan kechirmoqda. Bundan tashqari, dunyo bo'yicha iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik omillar seleksionerlar oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, suv tanqisligi va qurg'oqqchilik sharoitiga moslashuvchan, turli zararkundalar kasalliklarga chidamli, yuqori hosilni navlarni ko'paytirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bizni quvontirgani, biotexnologiya ta'lim yo'nalishi talabalari aynan shu dolzarb muammolar va ularning yechimini topishga qaratilgan muhim sohaning kelgusidagi vakillari sifatida o'zlarining bilim va ko'nikmalarini "In vitro" laboratoriyalarini, ilg'or chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklari biolaboratoriyalarida mustahkamlayapti.

Aktam NURNIYOZOV, Samarqand davlat veterinariya meditsinasini, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti biotexnologiya fakulteti dekani, dotsent.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Alirizayev Nojat Guliyamovichga (1999-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norkulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum G'afarov Fazliddin Meliyevichga (2021-yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norkulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Makarova Stepanida Nikonorovnaga (2020-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Zoxidova Masturaga (2022-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Mansurova Aromga (2001-yil 31-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Jurayeva Dodarga (2017-yil 10-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Yarbekova Gulnara Umarovnaga (2016-yil 5-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Qosimov Hoshimga (2008-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Xo'ja Ahrori Vali mahallasi.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasida marhum Raximova Chamanga (2013-yil 17-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin

o'g'li notarial idorasida marhum Ibodullayev Rajaboyga (2023-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Kurbanov Uzakga (2014-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Alimov Urinbayga (2010-yil 2-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani.

BEKOR QILINADI
Samarqand shahridagi "BEKOBOD SAM SHOH" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 308661802) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



RAHBARLAR TEATRGA BORDI

Davlatimiz rahbari raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida idora va muassasalarda o'zining bir kunini "Teatr kuni" deb e'lon qilish hamda rahbar va xodimlarning teatrlarga borishini yo'lga qo'yish taklif etilgandi.

Shunga ko'ra, viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi viloyat sektorlari, korxonalar, tashkilot, muassasalar rahbarlari va o'rinbosarlari oila a'zolari bilan birga viloyat musiqali drama teatriga bordi.

Tomoshabinlarga Asqar Xolmo'minov tomonidan viloyat musiqali drama teatrida

sahnalashtirilgan «Layli va Majnun» spektakli namoyish etildi.

Ta'kidlash o'rinliki, ushbu spektakl yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan «Yangi O'zbekiston yulduzlari» madaniyat va san'at milliy mukofoti tanlovida «Yilning eng yaxshi spektakli» nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilgan edi.



Samarqand Registonining islohcisi Bahodir Yalangto'sh Olchinning yetuk arbob, sarkarda va usta me'mor bo'lib yetishishida ulug' shoir va mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning katta o'rni bor. Quyida ikki buyuk ajdodimizni bir-biriga bog'lab turuvchi ayrim jihatlari haqida so'z yuritimiz.

Navoiyga taqlid qilgan SAMARQAND HUKMDORI

Bahodir Yalangto'shning otasi Boyxo'ja Alisher Navoiy faoliyatini yaxshi bilgan va ulug' shoira taqlidan o'g'liga arabcha Nizomiddin deb ism qo'ygan. Zero, zamondoshlari Navoiyni "Nizomiddin" ("dinning nizomi"), "dinni tartibga soluvchi") Mir Alisher", deya ulug'lashgan. Biroq tarixda sarkarda Bahodir Yalangto'sh nomi bilan shuhrat qozongan bo'lsa-da, rasmiy hujjatlarda Nizomiddin nomidan foydalanavergan. Qadimgi o'zbeklar orasida tug'ilgan chaqaloqqa ham o'zbekcha, ham arabcha nom berish odati bo'lgan. Jumladan, o'zbekona odatga ko'ra Mirzo Ulug'bekning, Shayboniyning, Manguberdining o'zbekcha ismlaridan tashqari arabcha Muhammad ismlari ham bo'lgan. Bu ulug'lar tarixda o'zlarining o'zbekcha ismlari bilan nom qoldirgan.

Bahodir Yalangto'shning otasi Boyxo'ja garchi, Shayboniylar sulolasida xizmat qilgan taniqli arbob bo'lsa-da, u e'tiqod masalasi davomida tovushli zikrga asoslangan Yassaviya tariqatiga emas, balki Naqshbandiya tariqatiga amal qilgan. O'g'liga Nizomiddin ismini bergan ota o'g'lining ham Alisher Navoiy mansub bo'lgan Naqshbandiya tariqatiga amal qiluvchi bo'lib yetishishini istagan.

Bilamizki, Alisher Navoiy o'zining shaxsiy daromadlari hisobidan 360 dan ziyod turli inshootlarni - Ixlosiya madrasasi,

Qudsiya masjidi, Xalosiya xonaqohi, Shifoia shifoxonalarni qurdirgan. Ulug' shoirning bag'rikeng binokor bo'lib yetishishida uning Samarqandda yashagan davrda Mirzo Ulug'bek va uning shogirdlari ilm-fanga oid bilimlaridan, me'morchilik san'atidan ilhomlangani haqida bayon qilib, o'z asarlarida ma'lumotlar qoldirgan.

Mashhur tarixchi Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida Alisher Navoiyning qurilishlarga keltiradi: "Podshohi Islomdan (Husayn Boyqarodan) ijozat olib, 903-yil sha'bon (1498-yil, mart-aprel) oyida gumbazni va "Maqsura" toqini ochishga amr qildi... Va u quruvchi binoning tez bitishiga qattiq ahamiyat berganidan har kuni ish boshiga kelar, ko'pincha etakni bar urib, mardikorlar qatori ishlar edi. Har necha kunda me'morlar, ustalar, balki barcha hunarmandlarga qimmatbaho to'ng'lar kiygizar va behad in'om va ehsanlar bilan ularni shodlantirar edi".

Qiziq tomoni shundaki, Bahodir Yalangto'sh ham xuddi Alisher Navoiy kabi Samarqandda me'moriy binolarni qurishda Buxoro xonidan ruxsat olgan va Navoiy kabi Samarqanddagi qurilishlarga shaxsiy daromadidan pul sarflagan.

G.Pugachyovanning fikricha, Alisher Navoiy qurdirgan hamomlarning devorlariga mifologik

qushlar - anqolar tasvirlari tushurilgan. Bunday jur'at esa albatta, Yalangto'sh Bahodirga ilhom bag'ishlagan va u Sherdor madrasasi manglayiga sherlar va kiyik tasvirini tushirgan.

Bu masalada ham Yalangto'sh o'ziga ma'nan ustoz deb bilgan Alisher Navoiy faoliyatiga yuzlangan. Alisher Navoiy usta rassom ham bo'lib, Husayn Boyqaro suratini, "Zanjirband sher" rasmini chizganligi haqida ma'lumotlar bor. Keltirganimizdek, Bahodir Yalangto'sh soldirgan Sherdor madrasasi peshtoqida ham sherlar tasviri chizilgan bo'lib, ular Navoiy sheridan farqli ravishda zanjirband emas, balki ozod va ovdagi harakatlarda tasvirlangan. Bahodir Yalangto'sh bunda Alisher Navoiy chizgan syujetni mantiqiy tugallab qo'ygan: zanjirband sherni ozod etgan, bir sher Alisher Navoiy, ikkinchisi esa Bahodir Yalangto'sh timsoliga aylangan. Ular quvlayotgan kiyik esa ijodiy ilhomni anglatgan. Ikkinchi sherni Yalangto'sh Bahodirga mengzadik. Chunki bu madrasa aslida "Bahodir Yalangto'sh" deb atalib, bu nom abjad hisobida madrasa qurilgan 1619-yilni anglatgan. Biroq Samarqand hokimi o'z nomi bilan "Yalangto'sh Bahodir" deb ataladigan madrasaning Sherdor deb atalishiga ham qarshi bo'lmagan. Chunki uning o'zi sherlarning biri sifatida madrasa peshtoqida savlat tukib turgan.

Alisher Navoiy "qo'sh uslub" degan me'moriy uslubning ijodkori sanaladi. U Saripulda Injil anhuri yonida hashamatli Ixlosiya madrasasi va unga yuzlanib turgan bag'oyat ko'rkam Xalosiya xonaqosini qurdirgan. E'tibor berilsa, Samarqand Registonidagi Ulug'bek madrasasi va unga qarab

Xitoylik san'atkorlar konsert berdi

Viloyat musiqali drama teatrida Xitoy Markaziy opera teatri san'atkorlari ishtirokida "Quvnoq Xitoy Yangi yili" nomli konsert dasturi namoyish etildi.



Konsert avvalida viloyat hokimining o'rinbosari R.Qobilov so'zga chiqib, O'zbekiston - Xitoy munosabatlari ko'p asrlilik tarixga egaligi, keyingi paytda ikki davlat o'rtasida hamkorlik aloqalari mustahkamlanib borayotganini ta'kidladi. Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi va viloyat hokimligi hamkorligida tashkil etilgan konsertda xitoylik taniqli san'at ustalari tomonidan Xitoy va G'arb kompozitorlarining asarlari, Xitoy xalq milliy qo'shiqlari ijro etildi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Alisher Navoiy tug'ilgan kun oldidan

tiklangan Sherdor madrasasi ham shu uslubda qurilgan. Demak, Bahodir Yalangto'sh Registon ansamblini tiklashda ham hazrat Alisher Navoiyning me'morchilik uslubidan foydalanagan. Binolarining orasidagi masofa, ranglar uyg'unligi va naqshlarning praporsiyalarini shu uslubda o'zlashtirgan. Bu uslubdan keyinchalik Toj mahal va uning qarshisida bino tiklamoqchi bo'lgan Hindiston hukmdori Shohjahon ham foydalanmoqchi bo'lgan.

Bahodir Yalangto'sh doimiy ravishda Alisher Navoiy yashagan Xuroson shaharlarini ham o'z hukmronligiga olishga harakat qilgan. Jumladan, 1613-yil samarqandlik hukmdor boshchiligidagi qo'shin Safaviy turklardan Mashhad, Nishopur, Hirot, Qobul kabi Xuroson shaharlarini tortib olib, Buxoro xonligi tarkibiga kiritgan. Bunday harakatlar Bahodir Yalangto'sh umrining so'ngiga qadar davom etgan.

Maqolada Alisher Navoiy va Yalangto'sh Bahodir faoliyatidagi umumiy jihatlari, o'xshashliklari, ijodiy an'ananing o'ziga xos tarzda davom ettirilganligi haqida so'z yuritdik. Kelgusi izlanishlar Yalangto'sh Bahodirning nafaqat usta san'atkor, me'mor hukmdor bo'lganligidan tashqari, badiiy ijod qilganligi, Alisher Navoiy uslubida g'azallar bitganligiga oid ma'lumotlarni ham oydinlashtirsa, me'raj. Zero, Alisher Navoiy dahosi nafaqat o'z davrining ijod ahliga, balki keyingi davrlar adabiyotiga, san'ati va binokorligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buni faqat noziklik bilan ilg'ay olish va xalqqa yetkazish muhim.

Erkin MUSURMONOV,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti professori,
filologiya fanlari doktori.



Ota-bobolarmiz bejiz «Uydan chiqmaganga bo'sag'a baland» deb aytmagan. Turli sabablar bilan hozirgi zamonda qarindoshni ham yo'qlab borolmayсан ba'zan. Sayru sayohat yaxshi narsayu imkon bilan bo'ylashsang, o'yinga sarhad yo'q, har safar talmov-sirab qolaverasan.

Qardoshlarga ko'ngilni bog'lab

Muhammadjon Obidovning "Buyuk ipak yo'lidagi Shinjon" Uyg'uriston haqidagi kitobini o'qib...

Xayolimdan shunday fikrlar o'tib, farg'onalik adib, jurnalist Muhammadjon Obidovning "Farg'ona" nashriyotida chop etilgan "Buyuk ipak yo'lidagi Shinjon" safarnoma kitobini o'qiy boshladim.

Aslida kitobni bo'lgan ehtiyoj, men bilgan 30 ga yaqin turkiy millatlar ichida o'zbekning qon-qarindoshi, turkiy bo'g'inidagi bir butog'i - uyg'ur xalqining hol-ahvolidan darak bilish uchun edi.

Tarixda o'zbeklar bilan birga yashagan, Mahmud Koshg'ariydek, Yusuf Xos Hojibdek buyuklarni yetishtirgan bu ulus, xaritada chizilgan chiziqlar sabab o'z bo'g'inidan ayrilib, sarhad degan yozuqni peshonasiga tortib yashayotganlardir. Ulardan yillab ba'zan xabar ololmaymiz bor gap. Lekin siyosiy tuzumlarga, turli voqealarga qaramay, o'zbek uyg'ur adabiyoti, san'ati, turmush madaniyati bir-biridan uzilmagan holda, bir-biridan ziyo topib, bir-birini hamisha to'ldirib, davom ettirib keladi. Uyg'uriston haqidagi 110 sahifadan iborat kitobdagi rasmlar ham bugungi uyg'ur xalqi umuminsoniy tamaddundan chetda qolmayotgan ekan-ku degan taskin-tasallini beradi, albatta.

Jurnalist o'ziga xos uslubda bugungi kunda uyg'ur avtonom o'lkasi kiradigan qadimda Chin deb atalgan Xitoy va Markaziy Osiyo, "O'zbekiston - Xitoy: ishonchli hamkor, ibratli munosabatlar", "Shinjonning yangi tarixidan", "Yuksalish yo'lidagi Shinjon", "Tarixni bugun bilan bog'lovchi dastur", "Shinjon ommaviy axborot vositalari" geografiyasi, sayohat manzillari, shaharlari haqida yozib, Qoshq'arga "ichkaridan nazar" soladi.

Bu kitob O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida yangi ochilgan sayohat jurnalistikasi yo'nalishi talabalariga, jurnalistik

sayohatnoma yozishni

o'rganish uchun uslubiy tavsiyanoma bo'la oladi. Zero, bugungi kunda Sibirda yashayotgan tuva, saxa-yoqutlari, dunyoda katta yerlarga yoyilib ketgan no'g'oy, qorachoy, oltoy, sho'r, gagauz (go'k o'g'uz) asli xorazmlik bo'lgan turkiy millatlarimizning hozirgi turmush madaniyati qanday kechayotganligidan bugungi o'zbekistonlik yoshlar xabardor bo'ladigan ko'plab kitoblarni yozish kerak hali.

Bugun turkiy qavmim, dunyoda boringizni bilaman, omonlik tilovchingizman, sog' bo'lsangiz yetar, deb yashayverishingiz o'zi yarashmaydi. Biz buyuk turkiy millatlar bir-birimizning holimizdan xabardor bo'lib turishimiz zarur. Bu axborotni yetkazadigan jurnalistlar insoniy rishtalarni bog'lab, ko'plab madaniy haqiqatlarni yozib, yoritib beradigan adiblarni tayyorlash katta zarurat.

Kitobni o'qib, yosh jurnalist do'stlarimiz safar qilish qoidalari va mehmonga borish odoblarini o'rgansa bo'lar ekan, degan fikrga keldim. Chunki ostonangdan bir qadam chiqsang, sen Vatanning timsoliga aylanasan. Sening sha'ning, elingning sha'ni, or-nomusi bo'ladi. Mana shu nuqtai nazarda safar qilgan odamgina Vataniga sharaf keltiradi. Mana shunday xayriy safarnomalarni yozadi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Muhammadjon Obidov tarixda Chin-Mochoin yo'li deb nomlangan Buyuk ipak yo'li bo'ylab sayohat qilgan ekan, turkiy bo'g'inimiz - uyg'ur bilan dildan suhbatlashib, bizning xabarimizni ularga yetkazishi barobarida, biz o'zbeklarga qarindoshlarimizning xabarini olib kelgandek. Har holda men shuni his etdim.

O'Imasbek XO'JAYEV,
O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmalari a'zosi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

6-FEVRAL

Qudrat SUYUNOV - (1919-1943) Paxtach tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

7-FEVRAL

Oysha MAVLONOVA - (1922-1991) Turkiston viloyatida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

Rahmatullo QO'NG'UROV - (1933-1994) Forish tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

10-FEVRAL

Saydi UMIROV - (1938-2020) Payariq tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 659 nusxada chop etildi. Buyurtma 65. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

